



Principle of the most advanced commander's corrective program in military training

Zoyirjon SOKHIBOEV¹

Chirchik Higher Tank Command Engineering School, Chirchik State Pedagogical University

ARTICLE INFO

Article history:

Received July 2025
Received in revised form
10 August 2025
Accepted 25 August 2025
Available online
15 September 2025

Keywords:

most advanced commander
correction program,
principle,
subjective state,
encyclopedia,
ability,
knowledge,
skill,
competence,
upbringing,
education..

ABSTRACT

This article elucidates the principle of the most advanced commander correction program in military education and its relevance, the specific aspects of developing young future officers' abilities, and the issues of shaping their skills during theoretical and practical training sessions.

2181-3663/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol3-iss7/S-pp99-105>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Harbiy ta'limda eng ilg'or komandir korreksion dastur tamoyili

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

eng ilg'or komandir
korreksion dastur,
tamoyil,
subyektiv holat,
ensiklopediya,
qobiliyat,
bilim,
ko'nikma,
malaka,
tarbiya,
ta'lim.

Ushbu maqolada harbiy ta'limda eng ilg'or komandir korreksion dastur tamoyili va uning dolzarbligi, yosh bo'lajak ofitserlarning qobiliyatlarini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari, nazariy va amaliy mashg'ulotlarda ularning ko'nikmalarini shakllantirish masalalari yoritib berilgan.

¹ Associate Professor, Lieutenant Colonel, Chirchik Higher Tank Command Engineering School Independent Researcher, Chirchik State Pedagogical University

Принцип самой передовой командирской коррекционной программы в военном обучении

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

самая передовая
командирская
коррекционная
программа,
принцип,
субъективное состояние,
энциклопедия,
способность,
знание,
навык,
квалификация,
воспитание,
образование.

В данной статье освещены принцип наиболее передовой программы коррекции командиров в военном образовании и её актуальность, особенности развития способностей молодых будущих офицеров, вопросы формирования их навыков на теоретических и практических занятиях.

KIRISH

XXI asr tom ma'noda barcha sohalar kabi pedagogik sohada ham bir qator yangi o'zgarishlar, yangi g'oyalar, yangi texnologiyalari asri deb aytsa mubolag'a bo'lmaydi. Chunki hozirgi zamonaviy qarashlar, ilm-fan rivojida zamonaviy ta'limga xos muhim jihatlaridan biri pedagog faoliyatining innovatsion xarakter kasb etishga erishish sanalib kelinmoqda. Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda pedagog faoliyatining innovatsion xarakter kasb etishiga erishish masalalari o'tgan asrning 60-yillaridan boshlab jiddiy o'rganila boshlangan. Xususan X. Parnet, J.Basset, D.Gamerton, N. Grof, P. Karlos, M. Maylas, A. Xellok, D. Chen, P.Edem, F.N. Gonobolli, S.M. Godden, V.I. Zakvayzinskiy, V.A. Kan-Kalin kabi tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan ilmiy ishlarda innovatsion faoliyat pedagog faoliyatga innovatsion yondashish, innovatsion g'oyalarni asoslash va ularni amaliyotda samarali tadbiq etish, xorijiy mamlakatlar hamda respublikada yaratilgan pedagogik innovatsiyalardan xabardor bo'lish orqali pedagog faoliyatida ulardan faol foydalanish borasidagi amaliy harakatlar mazmunini yoritilgan. Mohiyatiga ko'ra munosabat yoki jarayonga yangilik kiritishning dinamik tizimi sanaladi. O'z-o'zidan tizim sifatida yangilik kiritish munosabat yoki jarayonning, birinchidan, ikkinchi mantiqni, ikkinchidan, kiritilayotgan yangilikning muayyan vaqt oralig'ida izchil rivojlanishi atrof-muhitga ko'rsatiladigan o'zaro ta'sirlarini ifodalaydi. V.A. Slastenin fikricha innovatsiya yangilik yaratish, eng yaxshi va foydalanishga qaratilgan maqsadga muvofiq, yo'naltirilgan jarayon majmui deb biladi. Muallifning fikriga ko'ra har qanday innovatsiya yangi vositalar yordamida ijtimoiy subektlarning extiyojini qondirish va intilishlarini rag'batlantirish maqsadida ko'zlaydi. Har qanday innovatsiyada "yangi", "yangilik" tushunchalari muhim ahamiyatga ega. Turli munosabat va jarayonlarda kiritilayotgan yangilik mazmunan xususiy, subektiv, mahalliy va shartli g'oyalar tarzda nomoyon bo'ladi. Xususiy yangilik munosabat, obekt yoki jarayonga tegishli elementlardan biri o'zlashtirish yangilanishni nazarda tutadi.

Sub'ektiv yangilik ma'lum ob'ektning o'zini yangilash zaruratini ifodalaydi. Mahalliy yangilik alohida ob'ekt uchun kiritilayotgan yangilikning amaliy ahamiyatini tasniflash uchun xizmat qiladi. Shartli yangilik esa munosabat, ob'ekt yoki jarayonda murakkab,

progressiv yangilanishning sodir etilishini ta'minlovchi ma'lum elementlarning yig'indisini yoritishga xizmat qiladi.

Respublikamiz olimlaridan biri R.N. Yusufbekova o'zining ilmiy tadqiqotlarida innovatsiyalarni pedagogik nuqtai nazarda ko'rib chiqishga e'tiborni qaratadi. Xususan, pedagogik innovatsiyalar muallif tomonidan ta'lim va tarbiya jarayonida avval ma'lum bo'lmagan, qayd qilinmagan holat yoki natijaga olib boruvchi pedagogik xodisaning o'zgarib turishi mumkin bo'lgan mazmun ekanligini ta'kidlaydi.

Shu asosda innovatsion ta'lim texnologiyalarining mohiyati, turlari va nazariya asoslari xaqida aytadigan bo'lsak, lug'aviy jihatdan "innovatsiya" tushunchasi ingliz tilidan tarjima qilinganda (innovation) yangilik kiritish degan ma'noni anglatadi. Innovatsiya tushunchasi mazmuni aniq holatni ifodalaydi. Innovatsiya- muayyan tizimning ikkinchi tuzilmaning o'zgartirishga qaratilgan faoliyat.

O'zbekiston Respublikasi ensiklopediyasida ko'rsatilishicha, innovatsiya quyidagi mazmun va tushunchalarga ega: Innovatsiya (ingl. innovationas) kiritilgan yangilik ixtiro degan ma'nolarni anglatadi.

1. Texnika va texnologiya avlodlari almashtirishni ta'minlash uchun iqtisodiyotda sarflangan mablag'lar.

2. Ilmiy-texnika yurtlari va ilg'or tajribalarga asoslangan texnika, texnologiya, boshqarish va mehnatni tashkil etish kabi sohalardagi yangiliklar, shuningdek, ularning turli sohalar va faoliyat doiralarida qo'llanilishi degan tushunchalarga ega.

Harbiy faoliyatda mentorlik-bu tajribali komandir (boshliq), mentoring o'z qo'l ostidagi shaxsiy tarkibga (menti) o'rgatish va uning rivojlanishi va maqsadlarga erishishda yordam berish jarayoni. Mentorlik munosabati ko'pincha ish haqidagi bilimlar, ko'nikmalar va tajribalarni o'rgatish, professional rivojlanish va shaxsiy o'sishni ta'minlashga qaratilgan.

Mentorlikning asosiy jihatlari:

1. Tajriba va bilim: Mentor o'z sohasida yetuk mutaxassis bo'lib, mentiga kerakli bilim va ko'nikmalarni o'rgatadi.

2. Yordam va qo'llab-quvvatlash: Mentor, mentining kasbiy va shaxsiy rivojlanishida yordam beradi, kerakli resurslar va maslahatlar bilan ta'minlaydi.

3. Fikrlash: Mentor, mentiga mavjud muammolarni hal qilishda yordam beradi, ularning tanqidiy va ijodiy fikrlashini rivojlantiradi.

4. Tarbiya: Mentor, mentining his-tuyg'ulari va qobiliyatlarini tushunishda, ularni rag'batlantirishda va motivatsiya berishda muhim rol o'ynaydi.

5. Mas'uliyat: Mentorlik munosabatidagi ikki tomon ham o'zaro mas'uliyatga ega. Mentor mentiga yordam berishi kerak, menti esa o'z rivojlanish uchun aktiv ishtirok etishi zarur.

Mentorlik, ayniqsa, ta'lim, harbiy ta'lim-tarbiya, sport va ijtimoiy sohalarda samarali rivojlanish va o'zgarishlarni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

"Eng ilg'or komandir" korreksion dasturi-bu oliy harbiy bilim yurti kursantlari, bo'lajak ofitserlarni kelajakdagi harbiy faoliyatida har tomonlama yetuk, bilimdon, yuksak odob-ahloq jihatlarga ega, keng fikrlay oladigan, o'z fikri va dunyoqarashga ega, har qanday harbiy-siyosiy vaziyatlarni to'g'ri tahlil qila oladigan, o'z qo'l ostidagi shaxsiy tarkibni vaziyatning har qanday sharoitida, nostandart vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilib boshqara oladigan mohir komandir sifatlar yig'indisining korreksion dasturi sanaladi.

Eng ilg'or komandir korreksion dasturi odatda oliy harbiy ta'lim muassasalarda shaxsiy tarkib bilan ishlash uchun mo'ljallangan reabilitatsiya va tarbiyaviy dasturlarni ifodalashi mumkin. Ushbu turdagi dasturlar odatda quyidagi vazifalarni o'z ichiga oladi:

1. Xulq-atvorni yaxshilash: bo'lajak ofitserlarda ijtimoiy me'yorlarga moslashishga yordam berish va ular bilan muloqot qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan tarbiyaviy ishlar.

2. Ta'lim va o'qitish: Ular uchun asosiy bilimlar va kasbiy rivojlantirish dasturlarini taqdim etish orqali qayta ijtimoiylashuvni qo'llab-quvvatlash.

3. Psixologik yordam: bo'lajak ofitserlarning ruhiy holatini barqarorlashtirish va ularga psixologik yordam ko'rsatish.

4. Jamiyatga moslashuv: harbiy xizmatni o'tagandan keyin jamiyatga qaytishda ularga yordam berish uchun muloqot qilish va ijtimoiy mas'uliyatni o'rgatish.

Soft skills, yumshoq ko'nikma shaxslararo va muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan korreksion dastur hisoblanib, bo'lajak ofitserlarning reabilitatsiyasi va qayta ijtimoiylashuvi uchun juda muhimdir. Bunday dasturlar insonning xulq-atvorini, o'zini boshqarishni, muloqot qobiliyatlarini, konfliktlarni boshqarish va mas'uliyatli qarorlar qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. Quyida soft skillsni rivojlantirishga yo'naltirilgan ilg'or korreksion dastur asoslari bilan tanishamiz:

1. Muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish:

bo'lajak ofitserlarga aniq va samarali muloqot qilish usullarini o'rgatish;

empatiya, diqqat bilan tinglash, o'z fikrlarini aniq ifoda etish va munosib javob berish ko'nikmalarini rivojlantirish;

o'zgalarning fikrlarini tushunish va tanqidiy qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirish.

2. Muammolarni hal qilish va qarorlar qabul qilish:

bo'lajak ofitserlarda stressli vaziyatlarda konstruktiv qarorlar qabul qilishga o'rgatish;

muammolarni tan olish va ularni tahlil qilish qobiliyatini shakllantirish;

Ushbu ko'nikmalar bo'lajak ofitserlarni xotirjamlik bilan muammolarni boshqarish va o'zlarini oqilona tutishga yordam beradi.

3. Emotsional barqarorlik va o'z-o'zini boshqarish:

g'azab, asabiylik yoki boshqa salbiy emotsiyalarni boshqarishga qaratilgan mashqlar;

o'zini nazorat qilish, sabr va muvozanatni saqlashga urg'u berish;

kundalik vaziyatlarda salbiy his-tuyg'ularni yengib o'tish texnikalarini o'rgatish.

4. Harbiy jamoada ishlash ko'nikmalari:

bo'lajak ofitserlarni jamoada ishlashning asosiy tamoyillari bilan tanishtirish;

xamkorlik, to'g'ri baholash va mas'uliyatni bo'lishish qobiliyatlarini rivojlantirish;

harbiy jamoa bilan ishlashda kerakli bo'lgan ishonch, muvofiqlik va konstruktiv fikr almashish kabi fazilatlarini shakllantirish.

5. Ruhiy salomatlikni qo'llab-quvvatlash:

stress boshqarish texnikalari, masalan, meditatsiya va dam olish texnikalaridan foydalanish;

kognitiv xulq-atvor terapiyasidan (CBT) foydalanish orqali shaxsiy muammolarni tahlil qilish va yechish;

o'z-o'zini motivatsiya qilish va ichki salohiyatni rivojlantirish.

6. Rejalashtirish va maqsad qo'yish:

uzoq muddatli va qisqa muddatli maqsadlarni belgilash ko'nikmalarini rivojlantirish;

shaxsiy o'sish va ijtimoiy mas'uliyatni shakllantirish uchun aniq va o'lchovli rejalar tuzish;

bo'lajak ofitserlar o'zlarining oldiga qo'yilgan vazifalarni muvaffaqiyatli bajara olishlari uchun kerakli ko'nikmalarni rivojlantirish.

Mazkur dastur malakali psixologlar, pedagoglar va trenerlar tomonidan olib borilishi va bo'lajak ofitserlarning kelajakda ijtimoiy muhitga moslashuvini qo'llab-quvvatlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Qurolli Kuchlari oliy bosh qo'mondonini Sh.M.Mirziyoyevning 2020 yil 1 dekabrda PQ-4905 ya'ni O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida o'z kasbining ustasi unvoni uchun ko'rik-tanlovni tashkil etish va o'tkazish tartibini takomillashtirish to'g'risidagi qonuni tadqiqot ishining "eng ilg'or komandir" korreksion dastur ishlab chiqishga asosiy poydevor hisoblanadi. Bu qonunning asl mohiyati shundaki O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilari faoliyatini yanada rag'batlantirish, Vatan oldidagi sharaflari burchini ado etishdagi xizmatlari uchun ularni munosib taqdirlash, shuningdek, harbiylarning shijoati, mardligi va matonatini yanada mustahkamlash, ular o'rtasida sog'lom raqobat muhitini shakllantirish maqsadida 2024 yildan boshlab har yili O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida "Eng ilg'or guruh komandiri", "Eng ilg'or vzvod komandiri", "Eng ilg'or batalon komandiri" va "Eng ilg'or brigada komandiri" nominatsiyalarida o'z kasbining ustasi unvoni uchun ko'rik-tanlov (keyingi o'rinlarda-ko'rik tanlov) o'tkazib kelinayotganligi bizga sir emas.

"Eng ilg'or komandir" korreksion dastur ko'pincha kursantlarning ehtiyojlariga qarab ishlab chiqiladi va harbiy sohadagi bilimlarni, harbiy-ta'lim samaradorligini, ijtimoiy malaka va ko'nikmalarni yaxshilashga ko'maklashadi. Bular orqali bo'lajak ofitserlarning psixologik-pedagogik emotsional va ijtimoiy rivojlanishini ko'zda tutadi.

"Eng ilg'or komandir" sifatida shakllantirish uchun korreksion dasturning tuzishdan asosiy maqsad, oliy harbiy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan harbiy kadrlar, bo'lajak ofitserlar yoki yurtimizdagi barcha harbiy qismlarda o'z faoliyatini olib borayotgan ofitserlarning rahbarlik sifatida o'sishishining va uning samaradorligini ta'minlashdir. Bunda, dasturning maqsadlari shulardan iborat bo'lishi mumkin:

1. Rahbarlik sifatida o'sish: harbiy-ta'lim negizida bo'lajak ofitserlarning rahbarlik faoliyatlarini oshirish.

2. Aloqa va muloqot: harbiy jamoada aloqa va muloqotni yaxshilash, harbiy bo'linmada ishlash qobiliyatlarini rivojlantirish.

3. Strategik fikrlash: harbiy faoliyat davomida strategik masadlarni belgilash va ularni amalga oshirish, qobiliyatlarini shakllantirish.

4. Shaxsiy tarkib resurslari va boshqaruvi: harbiy jamoa a'zolari ya'ni shaxsiy tarkibni to'g'ri rag'batlantirish va ularning ijodiy salohiyatini faollashtirish.

5. Ma'suliyatni qabul qilish: bo'lajak ofitserlarning rahbar sifatida ma'suliyatini xis qilishlari, tarbiyalash va ularning o'z qarorlariga ishonch bildirishni ta'minlash.

6. Muammoli boshqaruv: ofitser faoliyati davomida yuzaga kelgan muammolarni hal qilish uchun mo'ljallangan strategiyalarni shakllantirish.

Eng ilg'or komandir korreksion dasturning amalga oshirilishi va qo'llanilishi, rahbarlar va boshliqlarning harbiy sohada keng yutuqlar va samarali muvaffaqiyatini ta'minlashi mumkin.

Eng ilg'or komandir sifatida shakllantirish tamoyilari harbiy sohada, muhim ahamiyatga ega. Ular rahbarlik etish, ishonchli harbiy jamoa tashkil etish va samaradorligi ta'minlashga yordam beradi. Quyida eng ilg'or komandir sifatida shakllantirish uchun muhim tamoyillar keltirilgan:

maqsadga yo'nalish: komandir har doim aniq maqsadlarga ega bo'lishi kerak. Bu maqsadlar harbiy jamoa a'zolarining harakatlarini samarali ravishda rivojlantirishga yordam beradi.

xotira va to'g'ri qarorlar qabul qilish: bo'lajak ofitser aniq va mantiqiy fikrlashga asoslangan qarorlarni qabul qilishi va jamoa uchun to'g'ri yo'nalishni belgilashga ma'sul.

bevosita ishtirok va e'tibor: komandir harbiy jamoa a'zolarining fikrlarini, muammolarini va ehtiyojlarini e'tiborga olishi shart. Bu jamoa ichidagi ishonchni mustahkamlaydi.

harbiy ma'suliyat: komandir o'z qarorlaridan va xulq-atvoridan ma'sul bo'lishi kerak. Oshkorolik va samimiyat harbiy jamoani ijobiy o'zgarishga olib keladi.

aniq muloqot: bo'lajak ofitser shaxsiy tarkibning fikrlashi va jamoa a'zolari bilan samarali aloqa qurishi muhim. Aloqaning aniq va ochiq bo'lishi, o'z navbatida, ish samaradorligini oshiradi.

rivojlanish va o'qitish: komandir harbiy jamoa a'zolarining o'z mutaxassisligi bo'yicha malakasini oshirish, ularning yakka tartibda rivojlanishini qo'llab-quvvatlashi kerak.

motivatsiya: komandir harbiy jamoa a'zolarini faollashtirish, ularni maqsadlarga yo'naltirish va ijobiy ruxga ega bo'lishiga yordam berishi kerak.

tanqidiy boshqarish: yuzaga kelgan vaziyatlarni samarali hal qilish qobiliyati. Muvaffaqiyatli komandir kutilmagan vaziyatlarda faol va to'g'ri reaksiya ko'rsatishi kerak.

harbiy sohada innovatsiyalar: komandir har doim dunyoda va mintaqamamizda yuzaga kelayotgan harbiy-siyosiy vaziyatlarni to'g'ri tahlil qila olishi va yangiliklarga ochiq bo'lishi shuning bilan bir qatorda zamonaviy texnologiyalar va metodlarni joriy etish, harbiy faoliyat davomida samaradorlikni oshirishga yordam beradi.

liderlik: bo'lajak ofitser o'zini har tomonlama shaxsiy namunasini ko'rsatish orqali shaxsiy tarkibni ilhomlantirishga ega bo'ladi.

Bu tamoyillar eng ilg'or komandir sifatida rivojlanishi uchun asosiy yo'nalishlar hisoblanadi. Ular harbiy jamoa ishi va natijalarini yaxshilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

XULOSA

Ushbu mulohazalardan xulosa shuki, ko'rilayotgan muammo, ya'ni harbiy-pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak ofitserlarni yumshoq ko'nikmalarini rivojlantirishning eng maqbul yo'llaridan biri bu korreksion dastur yaratish. Eng ilg'or komandir korreksion dastur-bu harbiy faoliyat turiga qarab o'zgarishlar va ularning qandaydir yuzaga kelgan muammolarni yoki buzilishlarni tuzatish, shakllantirish va rivojlantirish uchun mo'ljallangan dastur. Dasturda o'rganilgan bo'limlar, ko'nikmalar va qobiliyatlarni rivojlantirish, harbiy-ta'lim jarayonidagi kamchiliklarni bartaraf etish, bo'lajak ofitserlarning harbiy faoliyatida faol ishtirok etishini ta'minlash maqsadida ishlab chiqiladi.

“Eng ilg’or komandir” korreksion dastur ko‘pincha kursantlarning ehtiyojlariga qarab ishlab chiqiladi va harbiy sohadagi bilimlarni, harbiy-ta’lim samaradorligini, ijtimoiy malaka va ko‘nikmalarni yaxshilashga ko‘maklashadi. Bular orqali bo‘lajak ofitserlarning psixologik-pedagogik emotsional va ijtimoiy rivojlanishini ko‘zda tutadi.

“Eng ilg’or komandir ” sifatida shakllantirish uchun korreksion dasturning tuzishdan asosiy maqsad, oliy harbiy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan harbiy kadrlar, bo‘lajak ofitserlar yoki yurtimizdagi barcha harbiy qismlarda o‘z faoliyatini olib borayotgan ofitserlarning rahbarlik sifatida o‘sishishining va uning samaradorligini ta’minlash zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Qurolli Kuchlari oliy bosh qo‘mondonini Sh.M.Mirziyoyevning 2020 yil 1 dekabrda PQ-4905 qarori.
2. Daniel Goleman. “Emotsional intellekt: nima uchun u hayotimizdagi eng muhim ko‘nikma”. Emotsional intellekt haqidagi klassik asar.
3. Stephen Covey. “7 ta odatli muvaffaqiyatli odamlar” Shaxsiy va professional rivojlanish uchun muhim tamoyillarni bayon qiladigan asar.
4. Stephen Covey. “Hamkorlik san’ati: ta’sirchan muloqot va munosabatlar”. Samarali munosabatlarni qurish va konfliktlarni hal etishga bag‘ishlangan asar.
5. Malcolm Gladwell. “Nega ba’zilar muvaffaqiyatga erishadi va boshqalari yo‘q”. Muvaffaqiyatning asoslari va muvaffaqiyatli odamlarning xususiyatlari haqida kitob.
6. Daniel Goleman. “Har kuni hissiyotlarini boshqarish”. Hissiyotlarini boshqarish va stressni yengishga bag‘ishlangan asar.
7. Dale Carnegie. “Har qanday vaziyatda muvaffaqiyatli muloqot”. Muvaffaqiyatli muloqot usullari va munosabatlarni yaxshilashga bag‘ishlangan asar.
8. Barrie Davenport. “Har qanday hayotiy vaziyatlarda kuchli suhbatlash qobiliyatini rivojlantirish” Suhbatlashuv mahoratini rivojlantirish va o‘zingizning fikrlaringizni samarali tarzda ifodalashga bag‘ishlangan asar.